

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| D.Abdullayeva | |
| XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi | 324 |
| F.Temirov | |
| Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari..... | 328 |
| I.Naimov | |
| Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari..... | 333 |
| R.Rahimov | |
| Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar | 337 |
| D.A.Choriyeva | |
| Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar..... | 342 |
| O.V.Mahmudov | |
| O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya | 353 |
| A.A.Hakimov, B.A.Usmanov | |
| Amir Abdulloning Xorazm yurishi | 360 |
| N.X.Choriev | |
| Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi | 365 |

ADABIYOTSHUNOSLIK

| | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| I.Yakubov | |
| "Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda | 368 |
| P.Bakirov | |
| Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani | 373 |
| I.Mannopov | |
| Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi | 379 |
| Q.Yo'lchiyev | |
| Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar | 383 |
| J.Eshonqulov | |
| Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati | 388 |
| T.Matyoqubova | |
| Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati..... | 394 |
| M.Qurbonalieva | |
| Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili | 399 |
| I.Eshonqulov | |
| Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash | 405 |
| H.Ne'matova | |
| Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi | 413 |
| X.A.Xaitov | |
| O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi | 417 |
| Samadi Nooria | |
| Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari | 421 |
| A.G.Sabirdinov | |
| Shuhrat she'rlariga bir nazar | 427 |
| S.Muminov, Z.Kamoliddinova | |
| Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir..... | 433 |

TILSHUNOSLIK

| | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva | |
| Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi | 439 |
| Sh.A.Ganiyeva | |
| Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari | 443 |
| D.Yuldasheva, S.Nishonova | |
| Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi..... | 447 |
| M.Saminjonov | |
| Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi..... | 450 |
| O.Latipov | |
| Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini | 454 |

**ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIDA QO‘LLANGAN
SINONIMLARINING LINGVOPOETIKASIGA DOIR**

**О ЛИНГВОПОЭТИКЕ СИНОНИМОВ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В РОМАНЕ ИСАДЖОНА
СУЛТАНА «АЛИШЕР НАВОИ»**

**ABOUT THE LINGUOPOETICS OF THE SYNONYMS USED IN THE NOVEL “ALISHER
NAVOI” BY ISAJON SULTAN**

Muminov Sidikjon Mirsobirovich¹, Kamoliddinova Zilolaxon Shaxobiddin qizi²

¹Muminov Sidikjon Mirsobirovich

– Farg‘ona davlat universiteti professori filologiya fanlari doktori.

²Kamoliddinova Zilolaxon Shaxobiddin qizi

– Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida keltirilgan sinonimlar lingvopoetik jihatdan tahlil etilgan. Yozuvchining bu romani nashr etilganiga uncha ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa-da, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ancha-muncha tadqiqotlar boshlab yuborilganidan xabarimiz bor. Biroq o‘zbek adabiyotida sezilarli yangilik sifatida mutaxassislar e‘tirofiga sazovor bo‘lgan bu asar tilshunoslik, jumladan, lingvopoetik aspektda o‘rganishga endigina jiddiy kirishilmoqda. Shu boisdan mazkur maqolamizda “Alisher Navoiy” romanida keltirilgan leksik birliklarni lingvopoetik jihatdan tadqiq etishni niyat qildik.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligida lingvopoetika badiiy matn tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi soha ekanligi e‘tirof etildi va bu borada salmoqli tadqiqotlar yaratildi. Hozirgi vaqtda o‘zbek lingvopoetikasi o‘z tadqiq tamoyillari va ilmiy apparatiga ega bo‘lgan, rivojlanib borayotgan soha hisoblanadi.

O‘zbek adabiyotida Isajon Sulton asarlarini badiiy jihatdan chuqur tahlil qilib beruvchi ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Ammo til birliklarining yozuvchi asarlari matnidagi estetik vazifalari, lingvomadaniy xususiyatlari maxsus tadqiq qilinmagan. Isajon Sultonning butun ijodi nafaqat g‘oyaviy-badiiy jihatdan, balki badiiy til mahorati jihatidan ham o‘rganilishga munosib. Yozuvchi o‘zining barakali badiiy ijodi bilan o‘zbek tilining rivoji va boyishiga jiddiy hissa qo‘shgan. U o‘zbek tilining imkoniyatlarini o‘z asarlarida namoyish etibgina qolmay, uni turli ma‘nolar, go‘zal ifodalar bilan ham boyitgan. Shu sababli Isajon Sultonning aynan “Alisher Navoiy” romani tilini lingvopoetik jihatdan tahlil etish tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Аннотация

В данной статье с лингвопоэтической точки зрения анализируются синонимы в романе Исаджона Султана «Алишер Навои». Хотя с момента публикации романа этого писателя прошло не так много времени, мы знаем, что было начато много исследований с точки зрения литературоведения. Однако это произведение, признанное специалистами значительным новшеством в узбекской литературе, только сейчас серьезно изучается с точки зрения языкознания, в том числе и лингвопоэтики. Поэтому в данной статье мы намерены изучить лексические единицы, упомянутые в романе «Алишер Навои», с лингвопоэтической точки зрения.

В годы независимости в узбекском языкознании лингвопоэтика получила признание как область, изучающая язык художественного текста на пути проявления эстетической функции языка, и в связи с этим были созданы значительные исследования. В настоящее время узбекская лингвопоэтика представляет собой развивающееся направление со своими принципами исследования и научным аппаратом.

В узбекской литературе созданы научные исследования, дающие глубокий художественный анализ произведений Исаджона Султана. Однако эстетические функции и лингвокультурологические особенности языковых единиц в тексте художественных произведений специально не исследовались. Все творчество Исаджона Султана заслуживает изучения не только с идейно-художественной точки зрения, но и с точки зрения владения художественным языком. Своим благословенным художественным творчеством писатель внес значительный вклад в развитие и обогащение узбекского языка. Он не только продемонстрировал в своих произведениях возможность узбекского языка, но и обогатил его различными смыслами и красивыми выражениями. Поэтому анализ языка романа Исаджона Султана «Алишер Навои» с лингвопоэтической точки зрения является одним из актуальных вопросов нашего языкознания.

Abstract

In this article, the synonyms mentioned in Isajon Sultan's novel "Alisher Navoi" are analyzed from the linguopoetic point of view. Although not much time has passed since the publication of this writer's novel, we know that many studies have been initiated from the point of view of literary studies. However, this work, recognized by experts as a significant innovation in Uzbek literature, is only now being seriously studied in terms of linguistics, including linguopoetics. Therefore, in this article, we intend to study the lexical units mentioned in the novel "Alisher Navoi" from a linguopoetic point of view.

In the years of independence, in Uzbek linguistics, linguopoetics was recognized as a field that studies the language of artistic text in the way of the manifestation of the aesthetic function of the language, and significant researches were created in this regard. Currently, Uzbek linguopoetics is a developing field with its own research principles and scientific apparatus.

In Uzbek literature, scientific studies have been created that provide an in-depth artistic analysis of Isajon Sultan's works. However, the aesthetic functions and linguistic and cultural features of language units in the text of literary works have not been specially researched. Isajon Sultan's entire work deserves to be studied not only from an ideological and artistic point of view, but also from the point of view of artistic language skills. The writer made a significant contribution to the development and enrichment of the Uzbek language with his blessed artistic creation. He not only demonstrated the possibilities of the Uzbek language in his works, but also enriched it with various meanings and beautiful expressions. Therefore, analyzing the language of Isajon Sultan's novel "Alisher Navoi" from a linguopoetic point of view is one of the urgent issues of our linguistics.

Kalit soʻzlar: *lingvopoetika, lingvomadaniy, leksik birlik, sinonim, lugʻat, maʼno, nutq, roman tili, badiiy tasvir, ijobiy, salbiy.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, лингвокультурология, лексическая единица, синоним, словарь, значение, речь, новый язык, художественный образ, позитив, негатив.*

Key words: *linguopoetics, linguocultural, lexical unit, synonym, dictionary, meaning, speech, novel language, artistic image, positive, negative.*

KIRISH

Isajon Sul-tonning "Alisher Navoiy" romanida muayyan lingvopoetik vazifada qoʻllangan leksik birliklar: maʼnodosh, zid maʼnoli, shakldosh soʻzlarning roman badiiy-estetik qimmatini taʼminlovchi lisoniy birliklar sifatida voqelangani asar tilining xalqona va shirali boʻlishini taʼminlaydi.

Xalq tili boyligini koʻrsatib beruvchi til birliklaridan biri maʼnodosh soʻzlardir. Sinonimlar badiiy asar yaratilishida va uning qimmatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun sinonimlarni ham oʻrganish va tadqiq etish tilshunoslikning, asosan, lingvopoetikaning muhim vazifasi sanaladi. Oʻzbek tilshunosligida sinonimlarni oʻrganishga bagʻishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud. Shuningdek, bu masala oʻquv adabiyotlarida ham keng aks ettirilgan. Shu sohada amalga oshirilgan ishlarning yutugʻi sifatida oʻzbek tilida sinonimlarning izohli lugʻati yaratilganligini qayd etish lozim [1,58].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oʻzbek tili ham boshqa tillar qatori oʻzining rang-barang sinonimik qatlamiga ega boʻlib, bu soʻzlar tilimizning barcha imkoniyatlarini namoyon etadi, leksik qatlam salmogʻini oshirish uchun xizmat qiladi. Tildagi sinonimlarni yaxshi egallash, ulardan toʻgʻri foydalanish, kishi nutqi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida ular oʻz fikr va ideyalarining eng nozik holatlarini, oʻz nutqlarining hamma maʼno jilolarini tushunarli va ravshan, ravon va jozibador, shirali va taʼsirchan qilib ifodalash sharafiga muyassar boʻladilar [2,16-17]. Ularni yaxshi bilish va maʼno farqlarini ajratishda sinonimiyaga doir adabiyotlar, sinonimik lugʻatlar va ilmiy tadqiqotlarga tayaniladi. Sinonimlarning taʼrifi, lugʻati va maʼno farqlari xususida soʻz yuritilganda, akademik A.Hojiyevning izlanishlari eʼtirofqa loyiqdir. Olim tuzgan lugʻatlarida tilimiz boyligi – maʼnodosh soʻzlarning tabiati, tavsifini ochib beradi. Birgina "Oʻzbek tili sinonimlarining qisqacha lugʻati" nomli kitobida muallif mustaqil soʻzlardan iborat sinonimlarning 1700 dan ortiq turini maʼno farqlari bilan keltirib oʻtadi. Bundan koʻrinadiki, har bir leksemaning nozik maʼno qirralarini yaxshi anglash, farqlash bilan birga, ulardan unumli va oqilona foydalanishga yordam beradi.

Sinonimlar, ularning taʼrifi va xususiyatlari toʻgʻrisida turli manbalarda turlicha yondashuvlar bildirilgan. Masalan, "Oʻzbek tili stilistikasi" kitobida "maʼnolari bir xil yoki oʻzaro yaqin, talaffuz va yozilishi har xil boʻlgan soʻzlar [4,45] sinonimlardir, deb taʼrif berilsa, A.Hojiyev uni birlashtiruvchi maʼnolari bir xil, talaffuzi va yozilishi har xil, qoʻshimcha maʼno nozikligi, emotsional boʻyogʻi, qoʻllanishi kabi qator xususiyatlari bilan farqlanadigan soʻzlar sinonimlardir [5,3] deya izohlaydi. Ijodkor oʻz fikrini toʻgʻri va taʼsirchan bayon etish uchun sinonimlarning xususiyatlarini yaxshi bilishi va ulardan oʻz nutqiga mosini tanlay olishi kerak. Nutqdagi asosiy xatolar sinonimlarning maʼno nozikliklarini bilmaslik yoki eʼtiborsizlikdan kelib chiqadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Alisher Navoiy" romanida keltirilgan leksik sinonimlarning ayrimlarini tahlil qilamiz: *Giyohga, maysaga, yaprogʻu gulga, qurtu qushga shunday baxtiyorlik berding. Goʻzalligiga, betakrorligiga, turfa iforiga, borligʻiga beqiyos sanʼatingni ham joylading. U sanʼat shunchalar*

TILSHUNOSLIK

*mukammalki, har shaklida sening **ulug'liging** va **azizliging** namoyon bo'lib turadi [3,5]. Keyingi misollar ham shu kitobdan olindi].*

– Hirydan chiqib, yo'l yursangiz ham mo'l yurib Maymana, Andxo'y o'tgach, Jayxunga rost kelgaysiz. Sohili ko'rinmaydigan, g'oyat asov bir suv. Ikki sohili aro kemalar qatnagaydir. Kemaga chiqolmagan kishilar meshlarga havo to'ldirib suzib o'tarlar. Yana yo'l yursangiz ham mo'l yurib, benihoya ko'rkli Samarqandga qamti kelgaysiz. U temuriylar poytaxti, olamning sayqalidir. Yorug' olamda undan **ko'rkli**, undan **qudratli** poytaxt yo'q. Undan ham o'tib, dashtu tog' oshsangiz, yana bir daryo ila qarshilashursiz, unda ham kemalar suzgay. Ana o'sha Sayhundir [3,7].

– Tangri taoloning yerdagi soyasi, amirul-mo'minin Abulg'oziy Shohrux Mirzo hazratlari tashrif buyurmoqdalar! Boshqa jarchilar ham bu xabarni takrorlab, sultoni oliy tashrifini elga ma'lum qilishdi. – Hoy ulus! Sultoning kelmoqda, qulluq qil! – Raislar shunday deb xalq orasida ba'zilarga dakki berib yurishar edi. Jarchi sulton farmonini o'qiy boshladi: – Allohu akbar va huval karim! G'oziy sulton Shohrux binni Amir Temur Ko'ragon so'zimiz! **Izdihom** bir to'lqinlanib, tindi. Shunda ham **olomonning** nafasi, yelkalaru liboslar bir-biriga tegishidan hosil bo'lgan shovur har yoqni enlab turardi [3,11-12]. Keltirilgan gaplarda go'zalligiga, betakrorligiga, iforiga, borlig'iga; ulug'liging, azizliging; ko'rkli, qudratli; izdihom, olomon sinonimlari o'z o'rnida qo'llanilgan bo'lib, bu sinonimik juftliklarda ma'nodoshlarning har biri ma'no nozikliklari hisobga olinganini kuzatish mumkin va nutqdagi ortiqcha qaytariqlarning ham oldi olingan.

Mazkur asarda sinonimlar qaytariq, uslubiy g'alizlikning oldini olish bilan birga, sinonimik qatorlar ma'no va ta'kidning daraja sayin ortib yoki kamayib borishini, bir jarayonning ibtido va intihosini ham obrazli aks ettiradi. Buni yuqoridagi misollarda ham kuzatishimiz mumkin.

Bundan tashqari yozuvchi sinonimik qatordan ma'lum paytda nima uchun aynan shu shaklni tanlaganligining sababi va uning lingvopoetikasini ochib berishni nazarda tutadi. Mahoratli adib Isajon Sulton mazkur asarida tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so'zni topib qo'llashga harakat qilgan, shu tariqa qahramonlari ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarini ham real ko'rsatib bergan:

– Endi sizga butun olamlarning eng kuchli quroli haqida aytib beraman, – dedi mudarris. – Toping-chi, nima ekan? – Manjinaq! – Ho'kiztumshuq! – Fil! Mudarris yoyilib jilmaydi: – Yo'q-yo'q, men aytayotgan narsa ulardan ham kuchli. U so'zdir. – So'z? – Ha, og'zingizdan chiqayotgan shu nafas tabiatning eng ulug' mo'jizasi! Parvardigor har jon egasiga o'ziga kerakli darajada so'z aytish imkonini berdi, – deb, so'radi: – Kimning uyida kuchuk bor? Bolalar iljayishdi, chunki har bog'da ikki-uchtadan kuchuk bor edi. – U shundoqki, chaqirsangiz shodlanib **vovullagay**. Ursangiz, ozorlanib **angillar**. Begona bir nimaning sharpasini sezsa, tahdid ila **hurar**. Demak, kuchukka uch tur tovush berdi. Shu uch tovush uning umr kechirmog'i uchun yetarli bo'ldi. Shunday emasmi? Ba'zilariga so'z sira bermadi. Ba'zisiga hol tilini berdi, u o'zining holati ila so'zlab turadi. Misol uchun, bir daraxt suvsasa barglari **so'liydi**, kasallansa, **quriy boshlaydi**, shu vaziyati ila o'zining ahvolidan xabar beradi, ya'ni so'zlaydi. Insonga esa beaded so'zlarni hadya qildi. “Va U zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi”. So'z nedir? Boya aytganimday, bor-yo'g'i og'zingizdan chiqadigan bir hovurdur. Lekin men sizga shu hovurning qanchalar ulug' xazina ekanidan xabar berayin [3,24-25].

– Hay attang, – dedi keng yelkali, ustiga yengsiz to'n – abo kiyib, yelkasiga yoy osgan, yuzida kulgichi bor Muhammad Ali tag'oyi. – **Semiz, etli** kaklik edi-ya. Tek tursangiz urib olib, qovurib kabob qilar edik. Sal avval yonbag'irga bir nechta kaklik tushgan, tag'oyi o'q bilan urmoqchi bo'lganida jiyani – Alisher “Yo'q-yo'q, otmang” deb ottirmagan edi. – Inida polaponi bo'lsa-chi? – deb javob qildi ustiga kalta olacha to'n va bejirim etikcha kiyib olgan, oq tiniq yuzli, xiyol qiyiq ko'zli, g'ayratli bolakay. – Qizil og'zini ochib chiyillab, bularning uchib borishini kutayotgan bo'lsa-chi? Bo'ynidagi parining suyrib kelib, qanotiga tutashgani, boshini burganida u parlarning qimirlashi, qanot qoqib uchishlari, bir-birining ortidan ergashib yurishlari ... rosa chiroyli ekanda. – Siz go'zalligiga qaraybering, men ta'miga qaray, – dedi Muhammad Ali tag'oyi. – Mening qornim to'ygay, siz esa och qolgaysiz. Aslida Muhammad Ali tag'oyining o'zi och qoldi-ku? Alisher yayrab kulib yubordi. Beozor qushlarni o'limdan qutqarib qolgani uchun shod edi. Tog'a-jiyan qiyalikdan daryo tomon tushib borishdi [3,5].

– Olamda mavjud barcha yaratilgan halok bo'lib ketgaydir. Biroq inson **abadiydir**, ya'ni **sira o'lmagaydir**. – Qandoq o'lmagaydir? – Kishilarni ayriliq ko'yida oh chekib o'zlarini har yon urishga

majburlaydigan ajal yetgach, qaro yer bag'riga ko'miladigan jasad allaqachon inson bo'lmay qolur, chunki u tuproqning haqqi bo'lib, asliga qaytgandir. Oxirat zamonida esa tuproqdan maysa misoli unib chiqqaydir va abadiy yashagaydir [3,25].

Bilish va o'rganish insonlikning eng oliy vazifasidir! Inson – o'rgana oladigan, anglay oladigan va yarata oladigan xilqatdir. Yaratuvchanlik qobiliyati insonda benihoya yetuk. Shu sababli Tangri taolo o'z kalomida insonning eng ustun jihati aql yuritish ekanini qayta-qayta uqtirdi. Aqlingizdan foydalaning, deya sizga oyatlarini izohladi. Bilgan bilan bilmagan teng bo'lurmi, dedi. Aqllini ko'zi ochiqqa, nodonni ko'rga qiyosladi. Johil – faqat yeb-ichishni va o'z oromini o'ylaydigan kimsadir. Yetuk kishi esa **yaratuvchi, bunyod qiluvchidir!** Siz ayrim o'simliklarni ko'rgansiz, o'sib-ungay, ammo mevasi yer tubida bo'lgay. Sizning hayot daraxtingiz ham shunga o'xshaydi, ba'zi mevalarini bu olamda ko'rsangiz, yana allaqanchasini mangulik diyorida ko'rasiz. Ularning bir qanchasi aytgan so'zlaringiz tufayli **bunyodga keladi**. Ular tufayli **paydo bo'lgan bog'lar** haybatidan aqlingiz shoshadi. Aytilgan salavotlarning daryolaridan huzur topasiz. Berilgan salomlar-u aliklardan, kishilar ko'nglini olish uchun aytilgan yaxshi so'zlar bois paydo bo'lgan orom maskanlarini ko'rib hayratlanasiz! [3,26-27].

Kun tikkadan o'tib, sahro o'zgarib boshlaganida karvonboshi qo'ynidan nay chiqarib, labiga qo'ydi. Nay navosi karvon, ulkan g'ildirakli aravalar, **horg'in** tuyalar, **charchagan** otlar, **chayqala-chayqala borayotgan** kishilar uzra havolanib, ajib ohang paydo qildi. Qup-quruq qamish parchasidan tuyalar qadam larzoniga hamohang nola chiqishiga aql hayron qolmay iloj yo'q, uning ohangi o'lim va halokat sharpasidan hayiqib Iroq sari yo'l olgan shu karvondagilarning ruhiyatiga ayni mos edi [3,52].

U xushmuomala qariya bilan yana suhbat istagi ancha vaqt yuragini chulg'ab yursa-da, biroq Taftda bir necha kun qolib ketishganiga qaramay, qayta ko'rishish nasib bo'lmadi. Go'yo taqdir u cholni Alisher haqqiga duo etishi uchungina duch keltirgan, falak munshiyi falokat va ko'rgiliklarni o'nglab qo'yayotgan, taqdir ajoyibotlarini birin-ketin namoyon qilayotganday edi [3,58].

Oradan ikki yil o'tdi. Saltanat urushlari taxtasiga o'zga shoh va sipohlar terildi. Sulton Abusaid Dashti Qipchoq hukmdori Abulxayrxon bilan ittifoq tuzib, Samarqandni egallagan on, boshqa bir sulton – oliyjanob va nozikta'b Abulqosim Bobur Mirzo Hiriya kirdi. Hiriya ahli shod, chunki Sulton Abulqosimning **adolatparvarligi, mazlum boshini silashi** tillarda doston edi [3,64].

Shuningdek, "Mantiqu-t-tayr" sahrosi ham yodga keldi. Biroq u sahro qanchalar **tor** va **ziq**, bu sahro esa **so'ngsiz** va **haybatli**. U sahroning qushlari **fasohatli** va **fozil**, bu sahroniki esa **shiddatli, tez uchadigan** ekan. Juda balandda bir burgut qanot qoqmay aylanardi. Undan ko'z uzmay borayotgan Alisher burgutning to'satdan pastga sho'ng'iganini ham ko'rdi. O'qday otilib tushgan qush bir nimani ovlab, tikkamasiga havoga ko'tarilib ketdi.

Urush olovini yoqquvchi bu qo'shinni ko'ring edi! Besh ming askar oti tuyog'idan ko'tarilgan chang-to'zonni, shovqinini eshiting edi! Muncha **jasur, qo'rqmas** sarbozlar to'pi hosil qilgan jang ruhini sezgan kishi ko'riboq talvasada titrashi tayin. Sel kabi oqquvchi bu qo'shin qishloqlarga kirmasdan, aylana yo'llardan o'tardi. Tin olish uchun o'tirsa, bir qancha chaqirimga yoyilardi. Ortidan kelayotgan muhimot va aslaha arobalarini ko'ring edi! Buni ko'rgan xaloyiq saltanat qudratiyu haybatini anglab, besh ming askar shundoq esa, Sulton Abulqosimning tumonat qo'shini qandoq ekan, der edi [3,87-88].

Jome'da, Imom Rizo maqbarasi qoshidagi maydonda **izdihom** to'lqinlanar, voiz va'z qilardi: – **Xaloyiq**, quloq tutingiz. Tarkibi tashriqa tarixidan so'ylanur. Xaloyiq guvillab quloq tutib turardi [3,103].

Hayit namozi o'qilgach, olomon tarqalib, rastalardagi shirinliklar, noz-ne'matlardan bola-chaqasiga ola boshladi. Mashhad ahlining fozillarida madrasa-yu masjid devoriga abyot osish odati bor ekan, ba'zi kishilar uning qarshisiga to'planishib, mazmunini muhokama qilishardi. Alisher **ezginlik** va **horg'inlik** ichra, isitma qaqshatgan hoida, shunda ham qiziqqanidan devor yoniga bordi. Baytga ko'z tashladi-yu, turishga majoli qolmay, bir ustunga suyanib o'tirib oldi [3,104].

Ey olamdagi barcha hodisalarning Murabbiysi! Bandalaring safarimizni xayrli qilgin deb yalinib-yolvorurlar. O'zing sori safarlarni xayrli qilgaysan, yo'lda uchraydigan barcha kishilarni yaxshiliklarga sabab aylagaysan, olddan chiqadigan **balo-yu musibatlarini** xayrlarga aylantirib qo'ygaysan! [3,120]

TILSHUNOSLIK

Ko'rinadiki, muallif ushbu matnlarda sinonim so'zlarni ma'no nozikliklariga ko'ra o'z o'rnida qo'llagan.

*Qashshoqlik ila hasham, boylik ila chorasizlik bir yerda. Bir yonda **ozg'in, eti borib ustixoniga yopishgan** g'arib chorakorlar to'p-to'p, och-nahor turadilar. Bir yonda kunjut isini anqitib mashhur Samarqand nonlari pishadi. Boshiga bo'z mato o'rab olgan novvoylar tinim bilmay tariq, bug'doy, jo'xori unlaridan patir-kulchalar yopadilar. Mohirlik ila yog' surtib yaltiratgaylar, betiga qatiq-qaymoq chaplab, jizillatib suv ham uradilar [3,120]. Ushbu matnda muallifning leksik va frazeologik sinonimdan o'rinli foydalanganligining guvohi bo'lamiz.*

*Taqdir yoy, musibat o'q bo'lsa-yu, uni otguvchi Alloh bo'lsa, qayga qochib qutulgaysan? Albatta, otguvchining o'ziga! Bu o'y uning yuragidagi **dard-u iztirobni** bir oz bo'lsa-da, yengillashtirdi, o'rnidan turdi-da, bo'lib o'tgan va bundan so'ng bo'ladigan barcha ishlarni xayrli qilishini so'rab, hojat namozini o'qishga tutindi [3,141].*

*Madrassa darslari va Fazlulloh Abulays suhbatlari Alisher o'y-fikrini behad kengaytirib, shu xulosaga olib keldi: nafaqat yer yuzi, balki Koinot ham tengi yo'q qudrat ko'rgazmasidir, uning haqiqatlari esa ilm tufayli ma'lum bo'lgay. **Har dam, har nafasda** bir savob hosil qilishga sa'y qilingaydir, savob esa niyatdan paydo bo'lishi ma'lum [3,146].*

*Har holda, **g'avg'oyu sho'rishlarga** to'la yer yuzidan g'oyat yuksaklardagi u yulduz qalbni zavq va quvonchga to'ldirib, falak toqida nelardir yetilib kelayotganidan darak berib uchardi. Alisherning yuragi shodlikka to'ldi. Qul ham samoning bu hodisasiga hayron bo'lib qarab turardi. – Yo Alloh! – derdi. – Ota-onam fido bo'lsin, qulog'im munday mo'jizani eshitgan, ammo ko'zim sira ko'rmagan edi! Ey voh! Endi ne bo'lgay? – Yuraqoling, birodar! – dedi Alisher unga, xushhollik bilan. – Xojangiz men bo'lsam edi, sizni darhol ozod qilgan bo'lardim! Iroqliklar ayturlarki, dumli yulduzning quyrug'i tepaga qaragan bo'lsa, **xayr-u marhamatlaridan** darak emish. Inshoolloh sizning ham, mening ham hayotimda bundan buyog'iga yaxshiliklar ro'y bergay! [3,150t]*

*Mavlono Xoja Misliy musulmon va maj'usiy tarixining tengi yo'q bilimdoni bo'lib chiqdi. U turfa uluslarning e'tiqodi, urf-odatlarini, qavmlarning qalqinishi va tanazzuli haqida shunchalar **jonli va haqqoniy** hikoyalar so'zlab berdiki! Arastuning "Tarix", Abu Rayhonning "Osoru-l boqiya" va ibn Kasirning "Al-bidoya va-n-nihoya" kitoblarini bir-biriga qiyoslab, toliblar tasavvurini to Odam Ato zamonasiga qadar yetkazdi [3,154-155]. Bizga ma'lumki, sinonimlar ma'nosiga ko'ra uch turga bo'linadi: to'liq, ma'noviy va shartli sinonimlar. Yuqoridagi parchada yozuvchi shartli sinonimlardan foydalangan. **Jonli va haqqoniy** leksemalari matn ichidagina sinonimlikni hosil qilgan.*

*Mamlakatda vaziyat haddan ziyod xarob edi. **Text taloshlari oqibatida adolat va tenglik** jilovi qo'ldan chiqqan, saltanat kishilari ham, mulk egalari ham mo'min haqqiga tortinmay chang solishardi. Bir amir dehqonlarning dalalariga bog'lariga boradigan suvni to'sib olibdi. Quyi qishloqlarning kishilari har yil o'zaro aqcha to'plab kelib qo'lga tutqazishsagina suvni ochar, yo'qsa, ochmas emish. Sababi, irmoq u amirga tegishli mulkdan o'tar ekan [3,227].*

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Isajon Sultonning ushbu romani tili ham ona tilimizning estetik jilosini, ham lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish jihatidan jiddiy o'rganilishga munosib. Isajon Sulton o'z ijodiy merosi bilan bugungi o'zbek madaniyatiga katta hissa qo'shib kelayotgan ijodkordir. Adib nafaqat "Alisher Navoiy" romani bilan, boshqa qissa va hikoyalarida ham xalqimizning yuksak ma'naviyati, milliy tafakkuri, ruhiyatini o'zbek tili imkoniyatlari vositasida mahorat bilan yoritib bermoqda. Binobarin, Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani tilini o'rganish bugungi o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Isajon Sulton o'z asarida tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so'zni topib qo'llashga harakat qilgan, shu tariqa qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarini ham real ko'rsatib bergan. Yozuvchi "Alisher Navoiy" romanida voqelikka ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalashda unga mos ma'nodosh birliklarni mahorat bilan qo'llay olgan hamda bir tushunchani ifoda etuvchi sinonimlar qatoridan nazarda tutilgan ma'no va his-tuyg'uni ifoda eta oladigan so'zni topib, undan o'rinli foydalana olgan. Muallif romanda salbiy belgini kuchaytirish uchun ham, ijobiy holatni kuchaytirish uchun ham ifodani yanada quyushtirish maqsadida ma'nodosh leksema hamda frazeologik birliklardan unumli foydalangan. Adib ma'nodosh birliklar vositasida qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini, voqea-hodisalarni, manzaralarni, badiiy tasvirlarni aniq, ravshan va jonli qilib ifodalay olgan.

ADABIOTLAR RO'YXATI

1. Muqimova Z. O'tkir Hoshimov asarlari tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari. Filol.fan.dok. ... diss. – Toshkent, 2020.
2. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent: Fan, 1982.
3. Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
4. Shomaqsudov A. , Rasulov I. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
5. Xojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974.
6. Madaminova, S. (2021). Сухбатдош мақоми ва мулоқот самарадорлигининг лингвомаданий тамойиллари. " *Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari*".
7. Mo'minov, S. (2020). Устоз-шогирд муносабатида қўлланиладиган бошқарув санъатининг лингвокультурологик тадқиқи. *In the teacher-student relationship applicable management art linguoculturological research*.
8. Mo'minov, S. (2022). Мулоқот ва замонавий раҳбар маънавияти. Scienceweb academic papers collection.
9. Mo'minov, S. (2022). Alisher Navoi-about the State and its Governance. *EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE*.
10. Muminov, S. (2016). Нуқтаи назар ва мутолаа санъати. " *Нутқ маданияти ва тилшуносликнинг долзарб муаммолари*" маърузидаги республика илмий-амалий анжумани.
11. Муминов, С., & Муминов, Ш. (2022). COMMUNICATIVE BEHAVIOR OF THE LEADER AND ITS STUDY IN THE SOCIOLINGUISTIC ASPECT. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА*, 3(4).
12. Mirsobirovich, M. S. (2022). Linguistic Features of the Work—" The Country in My Grandmother's Stomach"ll. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 292-297.
13. Mirsobirovich, M. S. (2022). Territorial Characteristics of Communication Behavior in Tilavoldi Joraev's" Villagers. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 298-303.
14. Mirsobirovich, M. S. (2022). LINGUOPOETICAL CHARACTERISTICS OF COMPARISON OF ISADJAN SULTON USED IN THE NOVEL" ALISHER NAVOI". *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 697-703.
15. Quldashev, N. (2020). НАВОИЙНИНГ СЎЗ ҚУВВАТИ. *FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ*.
16. Roziqova, G. (2017). Абдулла Қаҳҳор ва нуқтадонлик санъати. *FarDU. Ilmiy xabarlar. – Научный вестник. ФерГУ*.
17. Ubaydullayev, K., & Muminov, S. (2022). PHRASEOLOGICAL UNITS WITH A NAME OF ANIMALS AND PLANTS FOCUS ON THE SCIENTIFIC RESEARCH. *Open Access Repository*, 8(1), 118-126.
18. Ҳасанова, Д. (2016). Раҳбар фаолиятида кечиримлиликнинг ўрни. Замонавий услубшуносликнинг долзарб муаммолари.
19. Xamdamova, V. (2021). Шоирнинг сўз ҳақидаги қарашлари. " *Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari*".
20. Ҳошимова, Ф. (2017). Темур тузуқларида сўз қудрати. Замонавий услубшуносликнинг долзарб муаммолари.